



NAVOIY G'AZALLARI NAJMIDDIN KOMILOV TALQINIDA

Rahmonova Maftuna O'ktamovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

+998886847444

rahmonovam448@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarining Najmiddin Komilov talqinidagi o'rni, mazmun va shakl uyg'unligi, tasavvufiy-falsafiy qatlamlariga nazar tashlangan. Najmiddin Komilovning "Ma'nolar olamiga safar" asari asosiy manba sifatida tanlangan bo'lib, unda shoirning timsollar olami, oshiq va ma'shuqa, fano va baqo kabi tushunchalarga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashilgan. Tadqiqot natijasida, olim izlanishlarini Navoiy g'azallarining chuqur falsafiy mohiyatini anglash, ularni hozirgi yoshlar ongiga yaqinlashtirishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. Maqola Navoiy lirikasini tasavvufiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilishga qiziquvchilar uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Najmiddin Komilov, g'azal, tasavvuf, lirik asar, badiiy talqin, timsollar, ma'naviylik, Komil inson, zamonaviy navoiyshunoslik, falsafiy tafsir.

Аннотация: В статье рассматривается место газелей Алишера Навои в интерпретации Наджмиддина Камилова, гармония содержания и формы, их мистико-философские пласты. В качестве основного источника выбрано произведение Наджмиддина Камилова «Путешествие в мир смыслов», в котором с современной точки зрения рассмотрен мир символов поэта, возлюбленный и возлюбленная, фано и бака. В результате исследования обосновано, что исследование ученого является важным инструментом для понимания глубокой философской сути газелей Навои и



приближения их к сознанию современной молодежи. Статья полезна для тех, кто интересуется анализом лирики Навои на основе мистико-эстетических критериев.

Ключевые слова: Алишер Навои, Наджмиддин Камилов, газель, мистицизм, лирическое произведение, художественная интерпретация, символы, духовность, Совершенный человек, современное навоиведение, философская интерпретация.

Abstract: This article examines the place of Alisher Navoi's ghazals in Najmiddin Kamilov's interpretation, the harmony of content and form, and their mystical and philosophical layers. Najmiddin Kamilov's work "Journey to the World of Meanings" was chosen as the main source, in which the poet's world of symbols, lover and mistress, fano and baqa were approached from a modern point of view. As a result of the study, the scholar's research is justified as an important tool for understanding the deep philosophical essence of Navoi's ghazals and bringing them closer to the minds of today's youth. The article is useful for those interested in analyzing Navoi's lyrics based on mystical and aesthetic criteria.

Keywords: Alisher Navoi, Najmiddin Kamilov, ghazal, mysticism, lyrical work, artistic interpretation, symbols, spirituality, Perfect Man, modern Navoi studies, philosophical interpretation.

KIRISH.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham o'z qadrini, salmog'ini saqlagan ijod namunalari sanaladi. Bu asarlar o'zbek hamda jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida Navoiy ijodini o'rganishga yuksak e'tibor qaratildi. Xususan, 2025- yil Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishi bu jarayonning yaqqol ifodasi bo'ldi.



Mustaqillik davri navoiyshunosligini Najmiddin Komilov ilmiy izlanishlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jumladan, ustozning “Ma'nolar olamiga safar” hamda “Xizr chashmasi” asarlari Navoiy lirikasi tahlilida asosiy o'rinni egalladi. Ushbu maqolada olim talqinidagi g'azallarning tahliliy o'ziga xosliklarga e'tibor qaratamiz.

MUHOKAMA

Najmiddin Komilov o'z ilmiy faoliyatida Navoiy ijodiyotini nafaqat adabiy-estetik mezonlar bilan, balki tasavvufiy-falsafiy jihatlarini inobatga olgan holda tahlil qiladi. Ustoz uchun Navoiy — bu shunchaki ijodkor emas, balki so'fiylik maktabining yuksak namoyondasi, fikr va ruh olamining hukmdoridir. Uning ilmiy maktabi chuqur fikriy-ma'naviy izlanishlarga tayangan bo'lib, so'zni zohiri bilan emas, botinini anglashga tayanadi.

Bu uslubda Najmiddin Komilov Navoiy g'azallaridagi ishq, ruh, haqiqat, tavhid, fano va baqo kabi tushunchalarga tasavvufiy ruh bag'ishlaydi. Uning fikricha, Navoiyni tushunish uchun uni o'qish kifoya emas — balki uning botini bilan yashash, uni his qilish, ma'nolar olamida sayr etish zarur.

Najmiddin Komilovning eng muhim konsepsiyalaridan biri — bu “g'azalni ko'rish emas, uning ruhi bilan yashash” g'oyasidir. Bu fikrda Navoiy g'azallarining yashirin ma'nosini his etish, u bilan yashash, uni ruhiy hayotga tatbiq etish zarurati ifodalanadi. Olimning ta'kidlashicha, Navoiy so'zlaridan, tashbehlaridan, ramzlaridan tashqarida emas — ular orasidagi sukunatda, so'z aytmagan joylarida, his va ruhda yashaydi.

Shu bois Najmiddin Komilov uchun Navoiy o'rganiladigan shoir emas, balki sukut ichra tinglanadigan mutafakkir. G'azal — bu ilm emas, ruhiyat. Undagi har bir so'z — bu g'oyat chuqur ma'no dengizi, tafakkur manbai.

Najmiddin Komilov g'azal tahlilida semantik qatlamlar tushunchasini ilgari suradi. Unga ko'ra, har bir g'azalda zohiriy va botiniy ma'nolar mavjud. Zohiriy qatlam — bu



she'ring ko'rinadigan, oddiy o'qish orqali tushuniladigan qismi. Ammo g'azalning asl mohiyati aynan botiniy uning sathida mujassam bo'ladi.

Masalan, ko'rinishidan ishq, oshiq, ma'shuqa haqida yozilgan baytlar aslida ilohiy ishq, tavhid, fano, baqo kabi tasavvufiy mohiyatni pinhonan aks etadi. Komilov bu ma'no bosqichlariga tafakkur, ruhiyni anglash va qalban idrok etish orqali kirib boradi.

Najmiddin Komilov Navoiy g'azallaridagi asosiy tasavvufiy obrazlar — oshiq, ma'shuqa, shayx, may, visol kabi timsollarni chuqur tahlil etar ekan oshiq timsoliga shunchaki dunyoviy muhabbat bilan yashayotgan inson emas, balki Haqqa yetishishni orzumand qalb sifatida, ma'shuqaga esa ilohiy zot, Allohning jamoli yoki Haqiqatning oliy darajasi deb qaraydi. Bundan tashqari, g'azallarda keluvchi Shayx obrazi nafaqat yo'l ko'rsatuvchi murshid, balki qalbni poklovchi, Haqqa eltuvchi yo'lboshchi hamdir. May – ruhni mast qiluvchi, ya'ni dunyoviy bog'liqliklardan xalos qiluvchi ilohiy ishq ramzi. Visol – yor bilan uchrashuv — aslida bu Allohga yetishish, ya'ni ruhiy birlashuv timsolidir. Ustoz bu obrazlarni yengil tarzda emas, balki ilmiy-tasavvufiy asoslar bilan yoritadi va o'quvchini ularning ichki falsafiy mohiyatini his qilishga chorlaydi.

Najmiddin Komilov o'zining asarlarida Navoiy g'azallarining bayt-bayt sharhini beradi. Bu sharhlar nafaqat lug'aviy izoh, balki chuqur ruhiy-falsafiy tahlilga asoslanadi.

Misol uchun, "Ey, safhayi ruxsoring azaya xattidin insho, Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro" deb boshlanuvchi g'azalini tahlil etarkan, olim har bir baytga alohida e'tibor qaratadi. Najmiddin Komilov matlani baytni shunday izohlaydi: "Ey, safhayi ruxsoring azaya xattidin insho, Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro" baytining nasriy tahlili: Ey, sening yuzing sahifasida azalilik xati bitilgan, husning kitobi avvalida abadiylik muxri — unvoni mavjud, botinan tahlili esa Alloh taoloning zamon va makondan tashqari, balki zamon va makonni qamrab oluvchi, uni yaratuvchi azaliy va abadiy Zot ekanligi, bu Zotning husnu jamoli, qudrati va yaratuvchiligi (sone' — sun' egasi ekanligi) ta'kidlanadi.



Shundan keyin butun olam Allohga zikr aytishi, shukronalar qilishi, kecha va kunduz, tong va shom, olamu odam Unga tobe'ligi tarannum etiladi.

Ulug' shoir Xudo qudratini toza, qalbga ta'sir etadigan tashbeh-tamsillar vositasida ta'rif etadi. Chunonchi, mashshota (yuzni pardoizlovchi) san'atkorligi – kunduz ko'zgusini kecha quli bilan tozalab jilolantirdi, deya ifodalab, kechani (tun) kunduzsiz, kunduzni tunsiz tasavvur qilish qiyinligini anglatadi. Zero, Parvardigor o'zaro zidlikni bir-biriga bog'liq qilib yaratgan.

Bu – ilohiy hikmat: tunsiz kun, kunduzsiz tun chiroyli emas va butun bo'lmaydi. Kunduz (quyoshning) munavvar shakli, Xudoning mehriga, tuni esa Uning qahriga o'xshatganda ham, aynan shu hikmat nazarda tutilgan[1.24]

Yoki "Soqiy" g'azalida: "Soqiy, may ber, ul mastona ko'z hayroni bo'laylik". Bu yerda "soqiy" — bu Haq yo'liga boshlovchi murshid, "may" esa — ilohiy bilim, "mastona ko'z" esa — Haq jamolini ko'rgan ko'z. Najmiddin Komilov bu obrazlar orqali o'quvchini g'azalning ichki sukunatiga quloq solishga chorlaydi.[2.38]

NATIJALAR

Najmiddin Komilovning tafsirida tasavvuf shunchaki diniy oqim sifatida emas, balki inson ruhiy holatini anglash va ma'naviy kamolot sari yo'naltirish vositasi sifatida ilgari suriladi. U Navoiy g'azallarini sharhlarkan, ularni tarixiy-diniy an'analar asosida emas, zamonaviy insonning botiniy olami bilan bog'liq holda tahlil etadi. Ayniqsa, oshiq-ma'shuqa obrazlari orqali inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi iztirob, sog'inch va visol kechinmalari ifoda etilganini ko'rsatadi. Bunda tasavvufiy obrazlar — may, soqiy, shayx, rohib, visol, hijron kabi vositalar orqali ma'naviy yuksaklikka da'vat qiluvchi fikrlar ilgari suriladi.

Yana bir muhim jihat shuki, Najmiddin Komilov har bir so'zga "hayotiy mazmun", ya'ni hayotiy idrok va ichki tuyg'u yuklaydi. G'azalni faqat estetik zavq uchun emas, balki "his qilish", "tuyish", "tuyg'uga singdirish" vositasi sifatida talqin qiladi. Uning



yondashuvida she'r – bu o'qiladigan emas, avvalo seziladigan va yashaladigan matn. Masalan, "soqiy" obrazini u faqatgina xumdon yonidagi ichimlik tarqatuvchi emas, balki ilohiy haqiqatga undovchi ruhiy uyg'otuvchi timsol sifatida izohlaydi.

Najmiddin Komilov talqinining yana bir o'ziga xos jihati – bu badiiy timsollar bilan axloqiy-falsafiy mazmunning uyg'un holda tahlil qilinishidir. U g'azaldagi har bir badiiy obrazda insoniy kamol, ma'naviy poklanish, ruhiy yuksalish g'oyalarini ko'radi. Garchi g'azalda ko'p hollarda mayxo'rlik, mastlik, hijron, jismoniy ishq timsollari ishlatilsa-da, Najmiddin Komilov ushbu obrazlarni axloqiy-falsafiy qobiq ichida talqin qiladi. Bu esa uning tahlil uslubini sof shakliy, quruq bayon darajasidan yuksaltirib, ma'naviy-ma'rifiy yondashuvga aylantiradi.

XULOSA

Najmiddin Komilovning g'azal tahliliga bo'lgan qarashlari o'zining chuqur falsafiy mazmuni, tasavvufiy asoslari va badiiy-estetik tahlil yo'nalishi bilan ajralib turadi. Uning talqinida g'azal — bu faqatgina adabiy janr emas, balki inson ruhiy olamini tarbiyalovchi, qalbni poklaydigan, ijtimoiy-ma'naviy hayotga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, Najmiddin Komilov talqini orqali o'quvchi g'azalni faqat o'tmish estetikasi emas, balki bugungi insonning ruhiy ehtiyojlarini aks ettiruvchi hodisa sifatida ko'ra boshlaydi. Bu esa o'z navbatida g'azal janrining zamonaviy anglashiga keng yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov, N. *Ma'nolar olamiga safar*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Komilov, N. *Xizr chashmasi*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
3. Navoiy, A. *G'azallar devoni*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
4. Qayumov, A. *Navoiy – buyuk mutafakkir*. — Toshkent: Fan, 1970.